

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARINING SHAKLLANISHIDA
QISSAXONLAR ROLI

San‘at Sariyev Matchonboyevich

*UrDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedراسi dotsenti,
f.f.d (DSc)*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek xalqining qadimiy an‘analaridan bo‘lgan qissaxonlik an‘anasi haqida so‘z boradi. Qissaxonlik dostonchilikdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari va ularning xalqimiz hayotida tutgan o‘rni masalalari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Qissaxonlik, qissa, doston, epos, tarix, motiv “Go‘ro‘g‘li” dostoni.*

Ma‘lumki, qissaxonlik an‘anasi ham tarixiy-folkloriy jarayonlarda shakllanib kelgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Qissaxonlar xalq epik ijodining namunalarini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaganlar. Qissaxonlar savodli, ma‘naviyatli, iqtidorli kishilar bo‘lib, ular odamlar gavjum joylarda, to‘yu yig‘inlarda uzundan-uzoq qish kechalarida xonadonlarda, o‘tovlarda qiziqarli jangnomalarni, qissalarni, dostonlarni o‘qib berib, xalqning hurmat-e‘tiboriga sazovar bo‘lganlar. Ularning yig‘inlariga hatto baxshilar ham kelishgan. Qissaxonlarning faqat qo‘lyozmalarnigina o‘qimasdan, ularning ayrimlari individual asarlar yaratish darajasigacha borib etganlar.

Qissaxonlik tarixiga nazar tashlaksak, bu an‘nananing ildizlari ham qadim-qadimlarga borib taqaladi. Qissaxonlik bir tomondan xalfachilik bilan bog‘lanib ketadiki, Xorazmda qadimiy kitoblarni, jangnomalarni, dostonlarni qiroat bilan o‘quvchi xalfalar “qissaxon xalfalar” deb nomlanadi. Xalfachilikning boshqa uslublari, turlari esa “qissaxon xalfalar” asosida, undan o‘sib, ajralib chiqqan.

Qadimiy zardushtiylik an‘anasiga ko‘ra, inson vafot etganidan keyin kohinlar “Avesto”dan gohlarni qiroat bilan o‘qiganlar. Emishki, o‘likning ruhi osmonu-falakka tezroq uchib ketishi uchun gohlar o‘qilgan. Ana shu kohinlar keyinchalik islom bilan bog‘lik kitoblarni, qo‘lyozmalarni o‘qishga o‘tganlar. Ana shu kohinlarning keyingi nomlanishi xalfa bo‘lib, ular islom dini bilan bog‘liq keyingi faoliyatlarida Qur‘oni karim va hadislardan namunalarni o‘qiganlar. Keyinchalik ularning repertuaridan payg‘ambarlar haqidagi qissalar, xalq dostonlari, jumladan “Go‘ro‘g‘li” dostonlari ham joy olgan va ular qissaxonlar deb atalgan.

Ikkinchidan qissaxonlikning shakllanishida qadimiy rivoyatlarni hikoya qiluvchi roviylarning ham roli katta bo‘lgan. Ular rivoyat aytishdan asta-sekin din va payg‘ambarlar haqidagi qissalarni o‘qib berishga o‘tganlar.

Qadimiy ziyofat va sayllarda, qissaxonlik kechalarida ko‘plab savodli kishilar, baxshilar, jumladan, qissaxonlar yig‘ilganlar. Ular bunday yig‘inlarda xalq kitoblarini (qissalarni, dostonlarni) o‘qiganlar va muxolaa qilganlar. Jumladan, Z.Vosifiyning “Navodir ul-vaqoe” asarida keltirilishicha, Navoiy zamonasida ham

bunday yig‘inlar mavjud bo‘lgan. Hazrat Navoiy ishtirokida haligi aytganimizdek qissaxonlik kechalari bo‘lib turishi, “Amir Hamza”, “Qissai Abo Muslim”, “Dorob” kabi kitoblarning, qissalarning o‘qilishi va mutolaa etilishi borasida ma’lumotlar berilgan.

Shoir Uyg‘un ana shunday qissaxonlarni eslab yozadiki: “Dasturxon atrofida dadam, mahallaning qari-qartang va yosh-yalanglari davra olib o‘tirishardi. To‘rda esa Ahmadali tog‘am ohang bilan qandaydir bir kitobni o‘qirdi. Bular mahallamizning qissaxonlari edi... Ahmadali tog‘am yashagan bizning mahallamiz ko‘p vaqtga qadar mahalla-kuydagi “qissaxonlar” to‘planadigan, kitob va olamda bo‘layotgan yangiliklar haqida miriqib suhbatlashadigan madaniy o‘choqqa aylandi. Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Bahrom-Gulandom, Tohir –Zuhra, Farhod va Shirin”, Zaynularab, Ertorg‘in, Qiz jipak va boshqa o‘nlab o‘zbek qozoq dostonlarini dastavval ana shu Ahmadali tog‘amdan eshitganman¹.

Taniqli ijodkor Sayfi Qudash shunday usta qissaxonlardan biri Yaguda haqida eslaydi: “Butun oila a‘zolarimiz bilan shiftga osilgan osma chiroq tagiga to‘planardik. Bu jimlikdan faqat Yaguda tog‘amning siniq ovozi eshitilardi, xolos. Tog‘amning repertuarida “Risolai Aziza”, “Bo‘z yigit”, “Qahramon Qoyil”, “To‘tinoma”, Kesik bosh”, “Yusuf va Zulayho”, Tohir va Zuhra” kabi asarlar bor edi.

V.M.Jirmunskiy: “Professional qiroatxon qissaxonlar xalq kitoblarini omma orasida, bozorlarda, uylarda o‘qib berardilar. Xalq hofizlari ularga kuy bastalar edilar. Shu tarzda og‘zaki epik she‘riyat yozma adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatar edi”, deb yozadi.

Qissaxonlik esa o‘z navbatida xalq dostonlarining, jumladan, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari qo‘lyozmalarining shakllanishida va bizgacha asl holida etib kelishi va xalqimizning ushbu ma’naviy merosdian bahramand qilishda o‘ziga xos ahamiyat kab etgan an‘analardan biri bo‘lib, kelmoqda.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qo‘lyozma nusxalarining shakllanishi og‘zaki variantlar bilan deyarlik bir davrning o‘zida boshlangan. Nega deganda, tarixiy manbalar qator olim va tadqiqotchilarning izlanishlari, bir qancha daliliy ma’lumotlar fikrimizni tasdiqlaydi.

Avvalombor qo‘lyozmalar, Ozarbayjon muhitida paydo bo‘lganligini aytib o‘tish joiz. Chunki, epos syujetining yadrosi Ozarbayjon-turkman muhitida paydo bo‘lgan va o‘z navbatida eposning qo‘lyozmalarining shakllanishiga ham turki bo‘lgan.

O‘zbek baxshi-shoirlari ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu ijodkorlarning ba’zilari aslida qissaxon bo‘lganligini shohida bo‘lamiz. Baxshi shoir Ergash

¹ Uyg‘un. “O‘tmishni eslaganda”. –adabiyotimiz avtobiografiyasi”. –T.: 1973, 221-betlar.

Jumanbulbul o‘g‘lining shogirdi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li qissaxon edi. Hozirgi kunda ham qissaxonlardan Rahmatilla Yusuf o‘g‘li va qissaxon xalfalardan So‘naxon Eshmetova, Soraxon Ollaberganovalar bisotida saqlanib qolgan xalq dostonlarining qo‘lyozmalari yoki qo‘lyozmalarga asoslangan dostonlarni, xususan, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining mavjud bo‘lganligi quvonarli holdir.

Akademik T.Mirzayevning keltirishicha, o‘tmishda qissaxonlik, asosan shahar joylarida, shaharga yaqin yirik qishloq markazlarida rivojlangan bo‘lib, keyingi vaqtlarda ijtimoiy va madaniy hayotdan batamom yo‘qoldi desak ham bo‘ladi. Chunki, bu narsa ijod va ijroning turiga nisbatan ijtimoiy talabning so‘nishi, ko‘plab kitob bosib chiqarilishi jumladan, ilgari aytib o‘tilgan qissalarning ham nashr etilishi va xalqimizning yoppasiga savodxonligi bilan bog‘liqdir.

Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, xalq dostonlari ajdodlarimiz epik tafakkur taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisini zabt etganligining isbotidir. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari xalq epik tafakkurining betakror namunasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari ajdodlarimiz orzu qilgan qahramonlarning badiiy ifodasi sifatida yaratildi. To‘g‘ri, bu turkum dostonlarning yaratilishiga XVI asrda Kichik Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan Jaloliylar ozodlik harakatining janglari asos bo‘lgan. Ushbu tarixiy voqealar asosida dastlab ko‘plab rivoyatlar, afsonalar, qo‘shiqlar va hatto ertaklar yaratilgan. Keyinchalik ijtimoiy taraqqiyotning talabi va zarurat tufayli “Go‘ro‘g‘li” dostonlari yaratildi.

Bizga ma‘lumki, yillar, asrlar o‘tishi bilan tarixiy voqelik adabiy voqelikdan uzoqlashib ketadi. Demak, tarixiy Go‘ro‘g‘li shaxsi va Jaloliylar harakati voqealari xotiradan uzoqlashadi va adabiy Go‘ro‘g‘li obrazi va uning adabiy voqeligi yaratilgan. Tarixiy Ko‘ro‘g‘li va Jaloliylar ozodlik harakati, uning asosiy ishtirokchilari bo‘lgan shaxslar haqidagi real ma‘lumotlar esa faqat tarixiy solnomalarda, arxiv ma‘lumotlari va ayrim tarixchilarning asarlaridagina saqlanib qolgan.

Nazarimizda, ajdodlarimiz o‘z orzu qilgan qahramonni, ya‘ni Go‘ro‘g‘li timsolini go‘yoki, ming-ming yillardan buyon kutgan ideal qahramon sifatida qabul qilgan va unga ixlos qo‘ygan, mehr qo‘ygan. Natijada endi “Go‘ro‘g‘li” voqeligi ertak yoki qo‘shiq yoxud rivoyat sifatidagina qolishi mumkin emas edi. Ajdodlarimiz ushbu qahramon timsolidagi shunday bir buyuk, ideal epik qahramonni yaratdiki, uning nomi tillarda doston bo‘lib, ajdodlardan-avlodlarga, bugundan ertagacha, kelajak avlodlarga ideal qahramon sifatida, namuna sifatida etib borsinki, uning nomi hech qachon unut bo‘lmasin, kelajak avlodlar ham “Go‘ro‘g‘li” epik timsoli xuddi “Alpomish” kabi xalqning o‘tmishidagi eng og‘ir kunlarida unga

madad bergan, hayotga, yashashga umid bergan, ularga ma’naviy kuch bag‘ishlaganligini chuqur va mustahkam anglab olsinlar.

O‘zida bahodirlik, mardlik, jasorat, xalrqparvarlik, vatnga sadoqat, kambag‘al va o‘jizlarga g‘amxo‘rlik qilish, xalqining manfaatini o‘zining har qanday manfaatidan ustun qo‘yuvchi va shu tuyg‘ular va maqsadlar bilan yashovchi Go‘ro‘g‘li timsoli “har qanday dushman qarshisida bo‘yin egishni o‘ziga or bilgan ideal qahramondir”. Ajdodlarimiz bu kabi yuksak tuyg‘ular orqali “o‘z farzandlarini jasur va mard, matonatli qilib tarbiyalab keldi”.

Shu asnoda “Go‘ro‘g‘li” dostonlari yaratildi. Xalqning epik tafakkuri “Go‘ro‘g‘li” haqidagi doston bir emas, bir necha dostonlar yaratilishini taqozo qildi. Natijada “Go‘ro‘g‘li” epik syujeti asosida qator syujetlar yaratildi va bu epik syujetlar turkum shoxobchalarining shakllanishiga asos bo‘ldi. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari asosan qahramonlik, vatanparvarlik, mardlik kabi mavzular atrofiga jamlangan bo‘lsada, ushbu epik turkum mavzu jihatdan nihoyatda serqirraligi bilan boshqa turkum dostonlardan ajralib turadi.

Xorazmda qo‘lyozma manbalarga e’tibor, ayniqsa katta bo‘lgan. Og‘zaki va qo‘lyozma manbalar bir-biri bilan kuchli aloqadorlik kasb etgan.

Shuni qayd qilish kerakki, turkum shoxobchalari avvalombor, tarixiy voqealarga asoslangan holda yaratildi. Turkum dostonlardagi qator tarixiy shaxslar, jumladan, XII asrda yashagan Oshiq Oydin pir nomi bilan mashhur bo‘lgan Shahobiddin bilan bog‘liq dostonlar (xususan “Xirmondali” dostoni), shuningdek, arab bosqini bilan bog‘liq Rayhon Arab, Bektosh arab kabi personaj va syujetlar kiritilgan dostonlar fikrimizning dalilidir. “Xirmondali” dostonidagi motivlardan bo‘lgan birgina syujetni keltirib o‘tamiz. Dostonda “qizni olib kelish uchun talabgor so‘rab Go‘ro‘g‘li davrada o‘tirganida o‘z yigitlariga sharob to‘la kosani tutadi”. Buning ma’nosi shuki, biror qizni olib kelish yoki biror qahramonlik ko‘rsatish uchun safarga talabgorni aniqlash kerak. “Talab” so‘zi ham o‘sha davrlarda qahramonlik ko‘rsatuvchi hayotiy hodisa sifatida talqin qilinganligi va o‘sha davr urf-odatlaridan biri sifatida tasvirlanganligi e’tiborni tortadi. Talabgorni aniqlash uchun Go‘ro‘g‘li tomonidan sharob to‘la kosa tutiladi. Kimki kosani olib mayni ichsa, o‘sha kishi talab uchun safarga jo‘nashi kerak bo‘ladi.

Sharob to‘la kosa tutish syujeti turkumning bir necha dostonlarida uchraydi. Shuni aytish kerakki, ushbu motivning shakllanishi qadimiy sak-massaget qabilalari urf-odatlariga borib taqaladi (Bular haqida keyingi boblarimizda batafsil to‘xtalamiz).

Shuningdek, buddaviylik elementlari, jumladan, Go‘ro‘g‘lining qabrda tug‘ilishi (ushbu syujet qadimgi greklarda mavjud bo‘lgan syujet asosida shakllangan), islom dini bilan bog‘liq Hazrat Ali, qirq chiltan, o‘n ikki imom kabi

personaj va syujetlarning turkum dostonlari tarkibiga kiritilganligi shular jumlasidandir.

Shuningdek, turkum dostonlariga xalq epik tasavvurida ming yillardan buyon shakllanib, yashab kelgan syujetlar, voqeliklar, lavhalar, timsollar, personajlar, tushuncha va aqidalar kiritildi. Misol tariqasida yana aytish o‘rinliki, “Go‘r” so‘ziforschada “qabr”ni bildirsa, qadimgi turkiy tilda “bahodir, mard” degan ma‘nolarni anglatishi aytiladi.

Turkiy hoqonlar orasida Go‘rxon nomli xonning nomi ham uning mard va bahodirligini anglatgan. Go‘ro‘g‘liga nisbat berilishida ham birinchidan, uning qabrda tug‘ilishi bo‘lsa, ikkinchidan, nazarimizda Go‘ro‘g‘li nomining shakllanishida “bahodirning o‘g‘li” tushunchasining ta’siri bo‘lganligi, ehtimol.

Ko‘rinadiki, mavjud epik syujetlar qayta ishlanib, xalq epik tafakkurida yana bir bor sayqallanib, dostonlar syujetiga singdirildi. Zero, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining shakllanishi va rivojlanishi shu tarzda ro‘y bergan.

Demak, “Go‘ro‘g‘li” epik syujeti yadrosining shakllanishida XVI asr tarixiy voqeligi asos bo‘lgan bo‘lsada, uning turkum sifatida, epos sifatida shakllanishida xalqimiz og‘zaki epik merosining salmoqli qismi, ko‘plab epik syujetlar asos bo‘lgan.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, epik turkumlikning shakllanishi bilan yana bir hayotiy zarurat paydo bo‘ldiki, uni kelajak avlodlarga bekamu-ko‘st etkazishda, hatto, barcha ijodiy jarayonlarida eposning dastlab qo‘lyozma, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib toshbosma, shuningdek, tipolitografik nusxalari paydo bo‘la boshladi. Hattotlar va kotiblar ham bu jarayonda ancha faol qatnashganlari holda xalq dostonlari, xususan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini qo‘lyozmalarga ko‘chirish bilan birgalikda ularni o‘z ijodiy imkoniyatlar darajasida sayqallagan holda ijodiy qayta ishlab dostonlarning ko‘plabi qo‘lyozma nusxalarini yaratdilar.

Zero, shu asnoda “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining ham qo‘lyozma nusxalari shakllandi va xalqimizning bebaho merosi qatoridan munosib joy oldi.

Birinchi bobda ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- “Go‘ro‘g‘li” eposi rivojlanish davrida turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqealarni baholash hisobiga boyib borgan. Bu bilan doston qismlarini xalqning kundalik hayoti, uning turmushini aks ettirgan yoki uning turmushi bilan aloqador, yuz yillik davriga yoki aniq tarixiy obrazga bog‘lash, dostonning mazmunini va g‘oyasining qamrov ta’sirini qisqartiradi.

- Eposning versiyalari bir-biridan farq qilib G‘arbiy va Sharqiy guruhga ajratiladi. Agar G‘arbiy variantning namunasi hisoblangan ozarbayjon “Go‘ro‘g‘li”

dostonlariga nazar soladigan bo‘lsak, uning shakllanishida tarixiy voqealar, hodisalar asos bo‘lganligi ayon bo‘ladi.

- Eposning dunyodagi barcha versiyalarini, ayniqsa, Kavkaz versiyalarini taqqoslab o‘rganish “Ko‘rning o‘g‘li” motivi Go‘rning o‘g‘li (mozorda tug‘ilgan o‘g‘il) motiviga qaraganda keng ko‘lamda va sevimli motiv sifatida ommalashganini va ushbu motiv evropa va Kavkaz folklorshunoslarining e‘tiborini jalb qilib kelgan asosiy motivlardan ekanligini qayd qilish mumkin.

- Ma‘lumki, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari asosan XVI asrlarda shakllana boshlaganligi sababli ularda mifologiyaning izlari o‘zini namoyon qilib turadi. Masalan, Go‘ro‘g‘lining mo‘jizaviy tug‘ilishining o‘ziyoq mifologiyaga borib bog‘lanadi. Go‘ro‘g‘lining dunyoga kelishi tug‘ilmasidan ancha oldin bobosiga tush orqali ayon bo‘ladi. O‘zbek folklorida tush motivi juda keng tarqalgan bo‘lib, uning ildizlari qadimgi mifologiya bilan bog‘lanib ketadi. “Tush lavhasinng asosi bitta — inson ruhiy dunyosining ramzidir. Tush va mif sharhlanar ekan, tadqiqotchidan ulardagi “ramzlar tilini” bilish talab etiladi”.

- Go‘ro‘g‘li nomi epos qahramonining epik nomi hisoblanadi. Uning tarixiy asoslari ham mavjud. Jumladan, Safaviylar davri tarixchisi Iskandarbek Munshiy Go‘ro‘g‘li Jaloliylar harakatining eng oldingi yo‘lboshchisi, deb ko‘rsatib o‘tadi. Go‘ro‘g‘li nomi va so‘zi u asosan bosh qahramonni, urug‘, qabila va boshqalarning nomi, deb izohlaydi. Bu jihatlar ozarbayjon Go‘ro‘g‘lisida to‘la o‘z aksini topgan. Bu borada folklorshunoslar qator fikrlarni bildirib o‘tganlar. O‘rta Osiyo versiyalarida esa, masalan, Toshkent nashriyotlaridagi toshbosmalarda chop qilingan nashrlar Ravshan nomi din himoyachilariga, Go‘ro‘g‘li esa xalq tomonidan berilgan nom ekanligini ko‘rsatadi. Eposning shakllanishida O‘g‘uznoma”, “Kitobi Dadam Qo‘rqut”, “Shohnoma” eposi turganligini, professor S.Ro‘zimboyev O‘g‘urjuq nomini Go‘ro‘g‘li nomi bilan yaqin ekanligini qayd qilib o‘tadi. “Go‘ro‘g‘li” eposi haqidagi ko‘pgina tadqiqot va izlanishlarda doston qahramoni tarixiy shaxs ekanligi, uning ashig-baxshi bo‘lganligi, Jaloliylar harakatining ishtirokchilaridan biri va badiiy obraz ekanligi ta’kidlanadi.

- Dostonning ozarbayjon versiyalarida Ravshanning otasi o‘g‘liga “Go‘ro‘g‘li” nomini beradi. Asarda otasi tomonidan o‘g‘liga bu laqabni berishi xalqaro miqyosdagi motiv siqatida ommalashmagan. Xalq nazdida va xotirasida Go‘ro‘g‘li yuz yillar doston qahramoni, badiiy obraz sifatida yashab kelgan. Ayni paytda u tarixiy shaxs hamdir. Dostonlardagi Go‘ro‘g‘li mard yigit, adolatsizlikka qarshi botir kurashchi, shu davrda ezilgan va huquqlardan, hamma narsadan mahrum qilingan xalqning, ommaning himoyachisi. Shu sabablarga ko‘ra ushbu qahramon timsoli mashhur bo‘lib ketgan.

- Ozarbayjon eposidagi otlar dengizdan chiqib kelgan. O‘rta Osiyo versiyasida esa suv oti deb beriladi. U daryodan chiqadi yana daryoga tushib ketadi. Eposdagi G‘irot timsoli Go‘ro‘g‘lining bir umrlik hamrohi , epik ot darajasiga ko‘tarila olgan jonzot, deb qarash o‘rinli.

- Ajdodlarimizning kitobat tarixiga nazar solsak, uning “Avesto”dan boshlangan kitobatchilik islom dini kirib kelgach, bu faoliyat diniy kitoblarni targ‘ib qilishga va shu zaylda bu an‘ana keyinchalik xalq ijodiyotining eng nodir namunalarini xalqqa taqdim qilishga yo‘naltirildi. Shu tariqa o‘ziga xos “Xalq kitoblari” nomini olgan qo‘lyozmalar paydo bo‘la boshladi.

Bu an‘ana XIX asrda Ozarbayjon hududlarida, O‘zbekistonda va ayniqsa Xorazm vohasida keng quloqch yoydi. XIX asrning boshlarida Xorazmda “Malikai Zavriyo”, “Ediga” dostonlari, keyinchalik “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, sharqiy o‘zbek xalq dostonlaridan “Malika Ayyor”, “Nurali”, “Xoldorxon”, “Hasanxon”, “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton”, Qissai Avazxon” kabi dostonlar yozuvga olingan. So‘ngra ushbu dostonlarning ayrimlari toshbosmada chop etilgan. Bu kabi asarlar “xalq kitoblari”, “kitobiy dostonlar”, “qissa-dostonlar” kabi turli nomlarda aytilib kelinsada, ularni umumlashtirgan holda “kitobat dostonlar” yoki “folklor matnlari” deb atash birmuncha to‘g‘riroq deb o‘ylaymiz.

- Turkiy xalqlar orasida tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining asosiy xususiyatlardan biri uning og‘zaki variantlari bilan bir qatorda qo‘lyozma va toshbosma variantlarda ham ommalashganidir.

- “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining qo‘lyozma va toshbosma variantlarini tadqiq qilish eposning ommalashish tamoyillarini belgilashda, qissaxonlik bilan og‘zakilik an‘analarining muayyan nuqtalarda birlashib ketish xususiyatlarini, turkum dostonlarining og‘zaki variantlaridagi evolyusion o‘zgarishlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.